

## FRAZEOLOGIZM – TILSHUNOSLIKNING MUHIM BIR BO'LIMI

Tog'ayeva Dilnigora Mavlon qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21385204>

**Annotatsiya.** Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy e'tibori frazeologizmlarni o'rganishga qaratiladi. Frazeologiya – ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasidir. Frazeologizm so'z kabi lug'aviy birlik hisoblanadi. Ular ham so'z kabi tilda tayyor holda mavjud bo'lganligi sababli nutq hodisasi emas, balki til hodisasidir. Ushbu maqolada frazeologizmlarning o'rganilishi, shakllanish bosqichlari hamda Ularning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Semantika, leksik ma'no, frazeologik birliklar, frazeologik nutq, ibora, tilshunoslik, frazeologizm tushunchasi, maqollar, so'z birikmasi.

**Abstract.** The main focus of phraseology as a branch of linguistics is the study of phraseologisms. Phraseology is a semantically interconnected word combination consisting of two or more words. Phraseologism is a lexical unit, like a word. Since they, like words, are already present in the language, they are not a speech phenomenon, but a linguistic phenomenon. This article analyzes the study of phraseologisms, the stages of their formation, and their basic characteristics.

**Keywords:** Semantics, lexical meaning, phraseological units, phraseological speech, expression, linguistics, the concept of phraseology, proverbs, phraseological combination.

**Аннотация.** Основное внимание в фразеологии как разделе лингвистики уделяется изучению фразеологизмов. Фразеология — это семантически взаимосвязанное словосочетание, состоящее из двух или более слов. Фразеологизм — это лексическая единица, подобная слову. Поскольку они, как и слова, уже присутствуют в языке, они являются не речевым феноменом, а лингвистическим феноменом. В данной статье анализируется изучение фразеологизмов, этапы их формирования и основные характеристики.

**Ключевые слова:** Семантика, лексическое значение, фразеологические единицы, фразеологическая речь, выражение, лингвистика, понятие фразеологии, пословицы, фразеологические сочетания.

**Kirish.** Barchamizga ma'lumki, til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan avlodga ma'daniy – ma'naviy shu bilan birga tarixiy an'analarni yetkazuvchi, asosiy fikr almashinish quroli hisoblanadi.

Til milliy madaniyatning xazinasi hamdir. Semantika tilning barcha qatlamlarida: grammatikasida, leksikasida, fonetikasida ham mavjud. Ammo milliy madaniy semantikasi tilning harakatdagi

birliklarida juda aniq namoyon bo'ladi. Bunday til birliklari so'zlar va barqaror birikmalardir. Tilshunoslikda bunday birliklarni Frazeologiya bo'limi o'rganadi.

### Asosiy qism

Barqaror birikmaning bir guruhi tarkibidagi soʻzlar maʼno jihatdan uygʻunlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi. Koʻpincha maʼnosi bir soʻzga teng va koʻchma boʻladi.

Soʻzning bunday barqaror bogʻlanishi ibora (frazeologik birlik, frazeologik birikma, frazeologizm)dir. Frazeologiya (gr.phrasis – ifoda va logos – taʼlimot) atamasi ikki maʼnoda ishlatiladi. 1) til frazeologik tarkibini oʻrganuvchi tilshunoslik sohasi. 2) shu tilning frazeologizmi majmui. Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turgʻun birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi. Frazeologizmining maʼnosini tashkil etuvchi soʻzda toʻla yoki qisman koʻchma maʼnoda ishlatilishi natijasida hosil boʻladi.[104;114]. Frazeologiyani tilshunoslikning oʻziga xos sohasi sifatida rivojlanishi mashaqqatli yoʻllarni boshdan kechirdi.

Hatto atqili ingliz tilshunosi Smirnitiskiy ham frazeologiyaning alohida tilshunoslik sohasi ekanligi tarafdori boʻlgan. Frazeologik birikmalar nazariyasi bilan lesikologiyaning bir boʻlimi boʻlgan frazeologiya oʻrganishiga qaramasdan, u tilning sintaktik qismida oʻrganilishi zarur. Agar biz frazeologiyani alohida soha deb tan olmaydigan boʻlsak, uni alohida fan deb aytolmaymiz degan edi Smirnitiskiy - “Лексикология англиского языка” asarida [4;53]. Gʻ. Salomov oʻzbek tilshunosligi uchun gʻoyat dolzarb muammolardan biri frazemalar tarjimai bilan maxsus shugʻullangan olimdir. Olimning taʼkidlashicha, “Maqol – xalq aql idrokining mahsuli, uning hukmi, koʻp asrlar tajribalari majmuyi, turmushdagi turli voqe hodisalarga munosabatining ifodasidir. “Frazeologizmlarni oʻrganishda ularni oʻzbek va boshqa tillar frazeologizmlari bilan qiyosiy oʻrganish ham maqsadga muvofiq koʻrinadi. N.Turopovning “Yapon va oʻzbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy oʻrganish” nomli ilmiy maqolasida shunday fikrlar ilgari surilgan.

Frazeologik iboralar nutqning taʼsirchanligini, emotsional-ekspressivligini taʼminlovchi asosiy vosita sifatida nutqimiz koʻrki hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan yapon tili frazeologizmlarining xususiyatlarini oʻrganib, ularni oʻzbek tilida ifodalash usullarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Har ikkala tildagi frazeologizmlarni qiyosiy oʻrganishda ularning mazmun jihatdan bir – biriga mos kelishi yoki qisman mos kelishi, oʻxshashligiga hamda bir tilda mavjud boʻlgan frazeologizmlarning ikkinchi tilda na ekvivalentiga, na variantiga egaligiga eʼtiborni qaratish kerakligi haqida aytib oʻtadi. A. Xojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lugʻati”da frazeologik birliklarga “tuzilishi jihatdan soʻz birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan maʼno anglatadigan, nutq protsessida yaratilmaydi, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lugʻaviy birlik, turgʻun birikmalarning obrazli, koʻchma maʼnoga ega turi” deb taʼrif berilib, frazeologizmining “obrazlilik va koʻchma maʼnolilik” integral belgilarini turgʻun birikmalardan farqlovchi differensial belgilar sifatida eʼtirof etiladi [1.124]. Tildagi koʻpgina frazema (ibora)lar uchun ekspressiv – emotsional boʻyoqdorlik ajralmas xususiyat hisoblanadi, shu bilan birga, iboralarning asosiy qismi uslubiy jihatdan neytraldir. Chunki ibora yordamida u yoki bu predmet, hodisa nomlanibgina qolmasdan, oʻsha predmet yoki hodisaga, shaxsga soʻzlovchining ekspressiv munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, tilimizda xursandlikni “ogʻzi qulogʻiga yetdi”, “tishining oqini koʻrsatdi” iboralari bilan ifodalash mumkin. Bu iboralarning biri ijobiy baho ottenkasini bildirsa, keyingisi baʼzan salbiy maʼno salbiy maʼno nozligini ifodalaydi.

Soʻzlashuv nutqi frazemas.

Iboralar orasida eng ko'p tarqalgan uslubiy guruh bo'lib, so'zlashuv (aniqrog'i, sof so'zlashuv) nutqi frazeologizmlari milliy til frazeologik fondining deyarli yarmini tashkil etadi.

Uslubiy jihatdan qo'llanish darajasiga ko'ra so'zlashuv nutqi frazeologik birliklari past(tushkun) til vositalari qatoriga kiradi. Ularning qo'llanishi aloqa jarayonining rasmiy tusda emasligidan dalolat beradi, nutqda tabiiylik, soddalik baxsh etadi.

So'zlashuv nutqi iborolari maishiy hayotda, o'zaro aloqa jarayonida, adabiy og'zaki nutqda va badiiy matnlarda keng qo'llanadi. Frazeologik ma'no o'to murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotative tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega, xolos.

Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologizm: (burgaga achchiq qilib, ko'rpga o't qo'yma, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq) denotative ma'noga ega bo'sa, turgan gap shunga qaramay nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi. Frazeologik birliklarning so'zlashuv uslubiga xoslanganligini ko'rsatuvchi mezonlar yuqorida ta'kidlanganlarning komponent mezonidan tashqari barchasi hisoblanadi. So'zlashuv uslubiga xos iboralar o'zining obrazlilik, ta'sirchanligi, hamma uchun tushunarlilik va jonlilik bilan xarakterlanadi. Bu iboralar genetik jihatdan erkin birikmalarni jonli xalq so'zlashuv nutqida ko'chma, metaforik ma'noda qo'llash negizida yuzaga kelgan: "qo'l siltamoq", "loyga botmoq", "qo'liga qaramoq", "oyog'idan olmoq", "boshi ko'zidan sadaqa", "ishning ko'zini bilmoq" kabilar. Frazeologiya sohasini o'rgangan tilshunos olimlardan biri bu A. Mamatov o'zbek frazeologik birikmalarini shakllantirish jihatidan o'rgangan holda 4 ta ta'snifga ajratadi:

1. Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar: ko'ngli ochiq, hafsalasi pir bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar:
2. Kasb – korga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar: bo'zchining mokisidek.
3. Hayvonlarga xos obrazlar asosida shakllangan frazeologizmlar: oyog'i kuygan tovuqday, ammamning buzog'iday, to'ygan qo'zi va hokazo.
4. Dinga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar: xudo ko'tarsin, payg'ambar hassasi bilan turgan singari.

Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, har bir til frazeologizmlari bilan rang- barang va boydir. Ularni kundalik hayotda qo'llash nutqimizni yanayam chiroyli va ravon qiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan frazeologik birikmalarning tahlilidan shunday deyishimiz mumkin, o'zbek tilshunosligida frazeologizmlar nutqimizning muayyan bir qismi bo'lib qolganligini ko'ramiz. Ba'zi iboralar o'zgaruvchan, lekin bu holat nutqiy vaziyat bilan emas, balki tilimizning tarixiy traqqiyotining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz.

Frazeologiyalar doirasida funksional jihatdan muayyan uslubga ega frazeologizmlar mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ana shu jihatdan frazemalar adabiy til leksikasidan, ya'ni funksional jihatdan xoslanmagan so'zlardan farq qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sattorova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent "Metodist Nashriyoti" 2023
2. Арнолд И.В. Стилисти современного английского языка 1981

3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti 1985
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T: O'qituvchi 1978
5. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. Samarqand 1998
6. O'rinboyev B. O'rinboyev D. Hozirgi o'zbek adabiy tilining so'zlashuv uslubi T: Fan - 1991
7. Mamatov A. Antonimiya asosida frazeologik shakllanish masalalari. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent 1998